Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

Davlat maqsadli jamg'armalari (DMJ) davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy choralarga yo‘naltiriladigan, maqsadli va muhim loyihalardir. Bu jamg'armalar, davlatning iqtisodiy rivojlanishini, ijtimoiy taraqqiyotini, siyosiy stabilligini va harakatchanligini ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari davlatning boshqa sohalardagi iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatlarini koordinatsiyalaydi va boshqaradi. Bu jamg'armalar yordamida quyidagilar amalga oshiriladi:

Infrastrukturani rivojlantirish: Davlat maqsadli jamg‘armalari, transport, elektro-energetika, suv va kanalizatsiya, telekommunikatsiya va boshqa infrastrukturaning turlari bo‘yicha loyihalarni o‘z ichiga oladi. Infrastrukturani rivojlantirish, iqtisodiy faoliyatni o‘sishi va yangi investitsiyalarni jalb etishga imkon yaratadi;

Sanoatni rivojlantirish: Bu jamg'armalar, so‘nggi texnologiyalar va innovatsiyalar asosida sanoatni rivojlantirish va modernizatsiyalash uchun loyihalarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Bu - iqtisodiy rivojlanishni kuchaytirish va kasb-hunar sohasini rivojlantirishga yordam beradi;

Davlat maqsadli jamg‘armalari, ta’lim sohasida yangi texnologiyalar va menejment usullarini keng qo‘llashni kafolatlaydigan loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi. Bu loyihalar bevosita taminotni oshiradi va bu sohada islohotlarni o‘sishga imkon beradi, shuningdek, o‘quv muassasalari, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalar bo‘yicha loyihalar va dasturlarni o‘z ichiga oladi. Bu loyihalar, sodiq va barqaror jamoat yaratishga, mustahkam oilaviy qurilishlarni o‘rnatishga va insonlar hayotini yaxshilashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bodi Z., Merton R. Finansы. Uchebnik. Per. s angl. -M.: “Vilyams”, 2007. - 347 s.
2.Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 920 b.
3.Malikov T.S. Moliya: nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Nur Durdonalari”, 2021. – 296 s.
4.Malikov T. Moliya: amaliy jihatlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Nihol-print”, 2022. -428 b.
5.Axunova Ye. Finansы. Uchebnik. Chast I. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. -320 s.

.

AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH VA HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH OMILLARI.

Yo’ldashaliyev Baxodirjon Iqboljon o’g’li
TMI Andijon fakulteti “Moliya va moliyaviy texnologiyalari“
yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annontatsiya. *Ushbu maolada O’zbekiston Respublikasi hududida yashovchi aholi o’rtasida “Moliyaviy savodxonlik”ni yanada rivojlantirish va soxaga oid takliflar*

Published: 17.05.2024
Cite this article: Yo‘ldashaliyev Baxodirjon Iqboljon o‘g‘li (2024). Aholi turmush darajasini oshirish va hududlarni iqtisodiy rivojlantirish omillari. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/77
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

hamda bu borada davlatimiz tomonidan olib borilgan islohotlar haqida hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan aholi turmush darajasini oshirish va hududlarda iqtisodiy rivojlanish uchun Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan bir qator farmonlar va ularning ijrosi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: *Moliyaviy savodxonlik, Avto 60 oy, norma, biznes reja, iqtisodiy hamkorlik, quvnoq do‘mboqchalar, iqtisodiy rivojlanishini reytingi, moliyaviy savodsiz.*

Aholining moliyaviy savodhonligi va iqtisodiy bilimimlarini oshirish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda jamiyatning yuksak ma’naviyatini shakllntirish kabi muhimdir.

O’zbekiston Respublikasi hududida yashovchi aholini albatta hozirgi zamon talabi bo’lgan “Moliyaviy savodxonlik” kabi bilimlar bilan ta’minlash. Aholini boy qatlamidan boshlab kambag’al qatlamigacha kerakli moliyaviy bilimlar bilan ularni kelajakdagi boshlamoqchi bo’lgan tadbirkorligini yoki bizneslarini yaratib yo’lga qo’yib olishlari uchun kerakli chora tadbirlar olib borish ularni tom ma’noda turmush darajasini yaxshilanishiga sabab bo’lishi mumkin.

Hozirgi kundagi biz guvoh bo’layotgan ayrim holatlar yani oddiy aholi qatlamiga mansub bo’lgan odamlarning bankdan qanday kredit olishni bilmay yurganlari, turli yolg’onchi firma va tashkilotlarga osongina aldanib qolayotganlari, “Axmatboy” voqeasi, “Avto 60 oy”MCHJ kabi holatlar aholi ortasida moliyaviy savodxonlik darajasi anchagina past ekanligidan dalolat beradi.

Bu borada hukumatimiz tomonidan ham kerakli chora tadbirlar allaqachon boshlab yuborilgan. Masalan Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 11 iyuldagi qaroriga muvofiq, “O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish” loyihasi ijrosiga kirishilgani bunga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Jahon Banki Guruhi moliyalar va bozorlar bo‘yicha departamentining Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash bo‘yicha loyihasi (ACAFI) hamkorligida SSP trenerlari va xodimlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘yicha dastur, 2018 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi va «Norma» professional rivojlanish markazi tomonidan «Tadbirkorlar va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish» dasturi yo‘lga qo‘yilgan. Bu borada ham tizimli ishlar amalga oshirilayotganini hozirgi kunga kelib ham ko’rishimiz mukin. Aholi turmush tarzini yaxshilash ularni moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadidia Respublikamiz Prezidenti tomonidan “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to’g’risida“gi farmonlari ijrosi bilan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo’llab quvatlash maqsadida kichik hududlarda ham aholini moliyaviy savodxonlikka o’qitish ularga “Biznes reja” tuzishlarida soha mutaxasislari tomonidan kerakli yordam va ko’maklar berib kelinmoqda. [1]

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) hujjatlarida moliyaviy savodxonlikka quyidagicha rasmiy ta’rif berilgan: “Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asoslangan moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko‘nikma, qadriyatlar (hayotiy yo‘nalishlar) va xulq-atvor kabi elementlarning majmui” [3].
Mazkur tushunchalar O.Kuzina tomonidan nisbatan batafsil va yetarli darajada tushunarli holda bayon etilgan [4]. Shuningdek, S.Xaston tomonidan moliyaviy savodxonlikka tegishli 52 ta ma’lumotlar bazasida to‘plangan 71 ta tahlil asosida ayrim dastlabki ta’riflar ham belgilab berilgan [5].

Bu mavzu juda keng va ko’plab insonlar tomonidan turlicha lekin mazmunan o’xshash ma’noda ta’riflangan. A.Sudakovaning ta’kidlashicha “Hozirgi vaqtda moliyaviy savodxonlik tushunchasi moliyaviy ma’lumot, kompetentlik, xabardorlik va boshqa atamalar bilan uzviy bog‘liq. Moliyaviy savodxonlikning ko‘rsatib o‘tilgan tushunchalar bilan asosiy farqi unga tegishli bo‘lgan asosiy elementlarning tatbiq etilish kengligi va bayon etilishining chuqurligida namoyon bo‘ladi. Shaxsning moliyaviy savodxonligi tushunchasini o‘z farovonligini oshirish uchun moliyaviy jihatdan asoslangan to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi kompetensiyalar yig‘indisi sifatida talqin etish mumkin.

Mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni rivojlantish orqali aholi turmushni yanada yaxshilash bilan bir qatorda hududlarda iqtisodiy rivojlanishga ham e’tibor berib kelinmoqda. Prezidentimizning “Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimini joriy etish to’g’risida”[10]gi qarorlari bilan qaysi hududda iqtisodiy o’sish rivojlanish boshqa hududlarga qaraganda tezroq roy beryotganini endi joriy qilingan reyting baholash tizimi orqali bilib borish imkoni yaratildi. Bu bilan qaysidir hudud iqtisodiy rivojlanishi past holatda va aholi qatlamini daromadlari ko’tarilmasdan bir joyda qotib qolishini oldini olish maqsadida va reytingda yuqoriroq pog’onadan joy olish, iqtisodiy o’sishni barqarorlashtirish maqsadi ilgari surilgan. Tabiiyki bunday olib borilgan kuchli siyosat natijasida aholi turmush darajasi oshishiga ham ma’lum darajada o’z hissasini qo’sha oladi.

Biz yuqorida ko’plab keltirgan fikr mulohazalarga qo’shimcha qilib shuni keltirishimiz mumkinki moliyaviy savodxonlikka erishish bu faqat insonning o’ziga va irodasiga bog’liq. Chunki inson o’zi istasagina bu bilimlarni egallashi mumkin. Tajriba shuni ko’rsatyabdiki, bu ishlarni tizimli amalga oshirish, aholi moliyaviy savodxonligining yoshi, yashash joyi va hattoki mentalitetu-qadriyatlariga xam bog’langan holda o’rgatib borilishi muhimroq. Aks holda, xarajatni daromadiga qarab belgilamaydigan, qarz va kreditlar girdobida botib qolgan, oddiy moliyaviy xizmatlardan foydalanishda ham birovlarning yordamiga muxtoj, firibgarlarga bemalol aldab keta oladigan, qisqasi “moliyaviy savodsiz” qatlam kengayib boraveradi”[7]. Bu so’zlardan shuni anglash mumkunki har bir shaxs o’ziga yetarli ravishda moliyaviy savodxonlik bilimini egallamas ekan u albatta hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda juda ko’plab qiyinchiliklarga va hattoki oddiy firibgarlarga aldanib qolishdek holatlarni boshidan o’tkazishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting an Internationally Comparable Survey of Financial literacy, Paris, OECD, 2011, 31 p.
2. Судакова А.Е. Финансовая грамотность: теоретическое осмысление и практическое исследование // Финансы и кредит, 2017, т. 23, вып. 26, стр. 1563–1582
4. Huston S.J. Measuring Financial Literacy. The Journal of Consumer Affairs, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 296–316.
5. Улуғмуродов Д. Молиявий саводхонлик нима? - http://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/10461-moliyavij savodkhonlik-nima.
6. Кузина О. Финансовая грамотность и финансовая компетентность: определение, методики измерения и результаты анализа в России // Вопросы экономики. 2015. № 8. С. 129-148.
7. И. Туропов. Молиявий саводхонлик ўзи нима, у нима учун долзарб?
8. Bankers.uz
9. Finlit.uz